

ANOR YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI

Tolibjonov Oxunjon Odiljon o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar Instituti mustaqil izlanuvchisi

Sharofiddinnov Bekzodjon Dilshodjon o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar Instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada anor yetishtirish texnalogiyasini zamonaviy va samarali usullari bilan tanishib olasiz. Anor ko‘chatlarini yetishtirish o‘ziga xos ish bo‘lib anor ko‘chatlari juda nozik qishda sovuqqa chidamsiz bunday muammolarga quydagi malumotlardan foydalanib anorazorlar tashkil qilishingiz mumkun.

Kalit so‘zlar: Anor avlodlari, Punika L, P. Granatum, gultoji barg, urug‘, mevasi, yetishtirish texnalogiyalari.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, esport imkoniyatlarini kengaytirish bugungi kunda dolzarb muammolaridan biridir. Xususan, 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi». Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish bo‘limi bиринчи bandida «...mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish...» dolzarb vazifa qilib belgilangan . Shu qarorlarni ijrosini taminlash maqsadida ushbu maqola yozildi.

Anor O‘zbekistonda juda qadim zamonlardan beri yetishtirilib kelinadi. Uning vatini Ozarbayjon, Eron, va Afg‘onistonni qo‘shib xisoblaganda Old Osiyodir. Anor avlod (Punika L)ning 2 turi bor. Ularning biri, yani anorning madaniy va yovvoyi (P. granatum) fo‘rmalari O‘rta Osiyo, Zakavkaziya va Dog‘istonda o‘sadi. Boshqa (P. potopunica) – yovvoyi turining mevasini yeb bo‘lmaydi.

Anor O‘rta Osiyo respublikalarida, Zakavkaziyada, asosan, Ozarbayjon krasnodar o‘lkasi (sochi)da, Qrim oblastida, Janubiy Qozog‘istonda va Dog‘istonda ekib o‘stiriladi. Ekiladigan madaniy anor seleksiya eng yaxshi xillarini tanlash va yuqori agrotexnikani qo‘llanish yo‘li bilan yovvoyi anordan chiqarilgan.

Anor universal o'simlik, Mevasi tarkibida 8-21% shakar; 0,5-5% turli kislotalar: 6mg % S vitamini bo'ladi. Anor shirasining kislotaligiga qarab, shartli ravishda uch gruppaga bo'linadi : takibida 0,9% gacha kislota bo'lsa, shirin, 0,9-1,8 gacha bo'lsa, achchiq-chuchuk va 1,8% dan ortiq bo'lsa, achchiq anor deyiladi. Anordan konditer sanoatida va meditsinada foydalaniлади. Uning po'chog'ida, shox –shabbasida ildizida oshlovchi (32%) va bo'yoq moddalari ko'p bo'lganligidan oshlovchi modda sifatida kalava ip va gazlamalarni bo'yashda xamda siyox tayyoorlashda ishlataladi. Tojbarglardan o'chmaydigan och va to'q rangli qizil bo'yoqlar tayyorlanadi. Yovvoyi xolda o'sadigan anor mevalaridan limon kislotalari olinadi. (tarkibida 4-9% gacha bo'ladi). Urug'i tarkibida 12-17% oziq – ovqatga ishlataladigan yog' bo'ladi. Ingichka novdalarida pishiq savatlar to'qiladi.

Anor suvi tarkibida tannidlar va temir moddasi ko'pligi tufayli undan ateroskleroz va boshqa kasalliklarni, po'chog'i va ildizi qaynatmasidan esa oshqozon ichak,yurak tomir, angina, astma va tutqanoq kabi kasalliklarni davolashda foydalaniлади. Anor suvi ishtaxani ochadi, undan xushxo'r ichimlik tayyorlanadi. Anor ildizi qo'mlarni va yonbag'irlarin mustaxkamlaydi. Guli juda chiroyli bo'lganligi tufayli manzarali buta sifatida xam ekiladi.

Anor uzoq gullaydi, yoppasiga gullah davri 20 maydan 1 iyungacha davom etadi. Dastlabkisi mayning boshlarida, eng oxirgisi sentabr-oktabrda paydo bo'ladi. Gullah davrining oxirida tug'ilgan mevalar pishmay qoladi. Birinchi tug'ilgan mevalari yirik va bir tekis pishadi.

Anorning guli ikki xil: birinchisi yirik, urug'chisi uzun, ko'zasimon bo'ladi. Ular urug'chisining ustunchasi. Odatda, changdondan yuqori yoki u bilan baravar turadi. Bu gullarning changi sifatli bo'ladi va meva tugadi. Ikkinchisi mayda, urug'chisi qo'ng'iroqsimon gul bo'ladi. Ular urug'chasining tugunchasi yaxshi rivojlanmagan, ustunchasi kalta bo'lib, changlardan pastroqda joylanadi, Bu gullar meva tugmaydi, ko'pincha o'tgan yilgi novdalarda, urug'chisi kalta novdalarda paydo bo'ladi. Urug'chisi uzun 5,0- 11,5% ni tashkil etadi.

Anorning mevasi yirik, qalin po'stli, meva qati va tushib ketadigan kosachasi bo'lib vazni 250-800g va undan og'ir bo'ladi. Mevasi 6-12 uyali, juda serdon, 300-1500gacha doni bo'ladi. Ularning xar biri sershira rada bilin qoplangan. Doni och pushti rangdan to'q qizil, Deyarli qora rangacha bo'ladi. Anor mevalari odatda shoxlarning uchida tugiladi, shox shabba orasida kam bo'ladi. Buni butashda inobatga olish kerak. Kechikib uzilsa anor yorilib ketadi.

Anorning ko‘p navlari o‘tkazilgandan so‘ng 3-4 yiliги xosilga kiradi va 6-7 yildan boshlab to‘liq xosil bera boshlaydi, 50 yil va undan ortiq xosil berishi mumkin. Ayrim tuplari 300 yilgacha yashashi mumkin. Tupidan o‘rtacha 25-30 kg gacha xosil olinadi.

Anorning o‘suv davri 180-225 kun. U yorug‘sevar va namsevar o‘simlik, lekin yer xaddan tashqari nam bo‘lsa, juda o‘sib ketadi va kam xosil tugadi. Qurg‘oqchilik uzoq davom etsa xosili kamayib ketadi. Mevasining sifati pasayib ketadi. Xavoning quruqligiga chidamli. Mevasi oktabrda pishadi, uzib qo‘yilganda yaxshi etiladi. Lekin pishmasdan 1 oy oldin uzilsa etilmay qoladi. Anor sovuqqa chidamsiz o‘simlik, shuning uchun, respublikamizning janubidagi ayrim mikrorayonlarda qishda ko‘mmastan o‘stirish mumkin. Qolgan zonalarda esa tupi qishda tuproqqa ko‘milishi kerak.

Anor asosan qalamchadan ko‘paytiriladi. Unum dor qumoq, nami yetarli tuproqlarda yaxshi o‘sadi. Qurg‘oqchilika chidamli, lekin namsevar. Yerning unum dorligiga qarab, ko‘chat oralig‘i 4 x 4 va 5x4 tomorqalarda 3 x 3 m qilib ekiladi. O‘zbekiston sharoitida kech kuzda xashak, qamish bilan yopiladi yoki tuproqqa ko‘milib bahorda ochiladi. Vegetatsiya davri 180-215 kun. Anor ko‘chati ekilganidan keyin birinchi yildan boshlab 30-40 sm balandlikda 4-5 ta asosiy shox qoldirib, past bo‘yli daraxt ko‘rinishda yoki 3-4 asosiy shox qoldirib, butasimon shakl beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Sh.T.Xo‘jaev O‘simliklarni zararkunandalardan uyg‘unlashgan ximoya qilish, agrotoksikologiya asoslar.
- 2) Tolibjonov Oxunjon Odiljon o‘g‘li, Muydinova Kamola Baxtiyor qizi, ANORNING FOYDALI XUSUSIYATLARI VA UNI UZOQ VAQT DAVOMIDA SIFATLI SAQLASH SIRLARI., Tadqiqotlar: Vol. 9 No. 1 (2023):" TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali| 9-soni| 1-qism"
- 3) Tolibjonov Oxunjon Odiljon o‘g‘li, Sharofiddinov Bekzodjon Dilshodjon o‘g‘li, MIKROBIOLOGIK PREPARATLARININGNING QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI AXAMIYATI, Tadqiqotlar: Vol. 9 No. 1 (2023):" TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali| 9-soni| 1-qism"
- 4) Tolibjonov O. O. O. G. L. ANORNI ZARARKUNANDALARDAN HIMYOYALASH //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 5. – S. 956-959.

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st April, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

- 5) Yaxontov V.V. Vrediteli selskoxozyaystvennix rasteniy i produktov Sredney Azii i borba s nimi. -Tashkent: Goskomizdat. UzSSR, 1953. -663 s.
- 6) Sheraliyev A.Sh., Nasirov B.S. Karantin begona o'tlar va ularga karshi kurash choralari. Toshkent, 2013- 95 b.
- 7) Odiljon o'g'li, Tolibjonov Oxunjon, and Nishonov Madaminjon Muxsinjon o'g'li. "QO 'ZIQU 'RINCHILIKNI RIVOJLANTIRISH." (2023): 147-150.